



QIYOSIY-TARIXIY METODNING KOMPARAVISTIKADAGI O'RNI

Raxmonova Matluba Janzakovna

"Tillar" kafedrasining katta o'qituvchisi

Toshkent Kimyo Texnologiya Instituti, O'zbekiston

e-mail: m.raxmonova2012@gmail.com (+99899 878 27 61)

Annotatsiya: Ushbu maqolada qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, komparativistika - tilshunoslikning qarindosh tillarni, ya'ni genetik jihatdan o'zaro bog'liq tillarni o'rganuvchi, ular o'rtasidagi munosabatlarni aniqlovchi hamda ularning zamon va makon bo'yicha tadrijiy taraqqiyotini tavsiflovchi sohasi ekanligi ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari til oilalarining, shu tizimlardagi ayrim tillar va elementlarning kelib chiqishini aniqlash, jumladan, tillar o'rtasidagi genetik qarindoshlikni — ularning yagona bir manbadan kelib chiqqanligini aniqlash (tillarning genealogik tasnifi) ham qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maqsadlari doirasiga kirishi, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tillar tarixini qayta tiklash (rekonstruksiya qilish)da asosiy tadqiqot vositasi sifatida qiyosiy-tarixiy metoddan foydalanilgani ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, qiyosiy-tarixiy grammatikalar, etimologik lug'atlar, tashqi (qiyosiy) rekonstruksiya, ichki rekonstruksiya, toponimika.

Qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi bilan tilshunoslik ham tarixiy, ham ilmiy-nazariy jihatdan mustahkam asosga ega bo'ldi. Qiyosiy-tarixiy metod ilmiy-tekshirish usullarining muayyan sistemasi bo'lib, o'z oldiga qarindosh tillarni qiyoslash orqali o'rganib, u yoki bu tilning tarixini, undagi o'zgarishlarni, lisoniy hodisalarning mohiyatini, uning taraqqiyotidagi qonuniyatlarni ko'rsatib berish, tushuntirish vazifasini qo'yadi. Ushbu tadqiqotning eng umumiy shakli — (eng avvalo fonetikani qamrab oladigan) qiyosiy-tarixiy grammatikalar va (leksikani namoyon etuvchi) etimologik lug'atlar tuzishdan iborat. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tavsifiy yoki sinxronik tilshunoslik, me'yoriy va umumiy tilshunoslikka qarshi turib, ularni inkor etadi, shu bilan birga, u bir qancha masalalarda tavsifiy tilshunoslik bilan ham, umumiy tilshunoslik bilan ham o'zaro aloqada, bog'liqlikda bo'ladi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikda qo'llanuvchi qiyosiy-tarixiy metodning asosiy tadqiqot usullari quyidagilardir:

1) **Tashqi (qiyosiy) rekonstruksiya** (tor ma'nodagi qiyosiy-tarixiy metod) - qarindosh tillardagi genetik jihatdan teng, o'xshash so'z va morfemalarni qidirib topish va bobo tildagi izchil tovush o'zgarishlarining qarindosh tillardagi natijalarini aniqlash; bobo tilning taxminiy-faraziy modelini yaratish va keyinchalik undan kelib chiqqan avlod tillarning aniq morfemalarini tiklash qoidalarini tuzish; taqqoslanayotgan tillar





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

o'rtasidagi mosliklar tizimini (*fonetika, morfologiya, sintaksis, leksika, frazeologiyada*) aniqlash va shu asosda tillarning qarindoshligini belgilash;

2) **Ichki rekonstruksiya** - ayrim olingan bir til tizimida ushbu til tarixining ilk bosqichlarida ba'zi bir elementlarning mavjud bo'lganligi haqida aniq guvohlik beruvchi hodisalar va o'zaro munosabatlarni aniqlash; ayrim bir tildagi eng qadimiy shakllar bilan eng yangi shakllarni o'zaro taqqoslash;

3) **O'zlashma** (*rekonstruksiya qilinayotgan tillarga o'zlashgan yoki shu tillardan boshqa tillarga o'zlashtirilgan*) so'zlar tahlilidan ma'lumotlar chiqarib olish;

4) **Toponimika** materiallaridan ma'lumotlar chiqarib olish va boshqalar.

Amalga oshirilgan rekonstruksiya tizimining barcha tomonlarini: fonologiya, morfologiya, leksika, qisman sintaksisni qamrab oladi. Biroq ushbu rekonstruksiyalarni tarixan aniq bir bobo til bilan bevosita tenglashtirib bo'lmaydi, ular tarixiy haqiqat bo'lmish bobo til haqidagi mavjud ma'lumotlarni modellash tiradi, xolos. Ushbu ma'lumotlar ba'zi obyektiv sabablarga ko'ra barcha avlod tillarda yo'qolib ketgan morfemalar hamda fonemaviy ziddiyatlarini aniq rekonstruksiya qilish imkoniyati yo'qligidan, muqarrar ravishda to'liq, mukammal bo'la olmaydi. Shu sababli bir qator rekonstruksiya taxminiy-faraziy holatda bo'ladi.

Tillarni tarixiy taraqqiyotsiz qiyoslash, tarixiy qiyoslashdan farqli ravishda, qarindosh va noqarindosh tillarni chog'ishtirish deb atalib, u avvaldan Yevropaning antik davrida (*yunon va lotin tillarini chog'ishtirish*), qadimiy Hindistonda (*sanskrit bilan prakritlarni - o'rta hind tillarni chog'ishtirish*), XI-XII asrlar Sharq tilshunosligida (*M.Koshg'ariy va M.Zamaxshariy lug'atlarida qarindosh va noqarindosh tillar lug'aviy birliklarning chog'ishtirilishi*) mavjud bo'lgan. Chog'ishtirma tilshunoslik XVII-XVIII asrlarda Yevropadagi va dunyoning boshqa mintaqalaridagi turli qarindosh tillar bo'yicha tadqiqot materiallarining to'plana borishi bilan yanada rivojlanadi va Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning paydo bo'lishiga zamin hozirlaydi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik XX asr boshlarida, asosan, Germaniya, AvstroVengriya va Skandinaviya mamlakatlarida rivojlangan bo'lsa, keyingi paytlarda bu tilshunoslik Rossiya, AQSH, G'arbiy Yevropa, Finlyandiya, Shvetsiya, Vengriya, Yaponiya, Hindiston va boshqa mamlakatlarda ham taraqqiy etmoqda. Turkiyzabon davlatlarda ham Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikka qiziqish kuchayib bormoqda, qarindosh va noqarindosh tillarni o'zaro qiyosiy o'rganishga, lug'aviy, morfologik birliklarning tarixiy shakllarini aniqlashga e'tibor berilmoqda. Xususan, O'zbekistonda o'zbek-qoraqalpoq, o'zbek-turkman, o'zbek-qozoq, o'zbek-tojik, o'zbek-rus tillarini, Qozog'istonda qozoq-o'zbek, qozoq-mo'g'ul tillarini qiyosiy o'rganish bo'yicha muayyan izlanishlar olib borilgan.

Xulosa qilib aytilganda, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik bo'yicha tadqiqotlarning natijalari tillarning genealogik tasnifiga asos bo'lib, etimologiya va lingvistik paleontologiyani ilmiy poydevori hisoblanadi. Tarixchilar uchun esa xalqlar





**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS**

etnogenezi, ularning yozuvga qadar bo'lgan tarixi, qadimiy xalqlar madaniyati va o'zaro aloqalari haqidagi lingvistik ma'lumotlardan foydalanish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Usmonov S, Umumiy tilshunoslik, T., 1972;
2. В.И.Кодухов. Общее языкознание. М., 1974.
3. Т.А.Амирова, Б.А.Олховиков Ю.В.Рождественский. Очерки по лингвистики. М., 1975.

